

**YOSHLARNI AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYALASH MUAMMOSINING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING O'RGANILISH HOLATI**

Parmonov Sardor Eshdavlrat o'g'li

Samarqand davlat chet tillari instituti Narpay xorijiy tillar fakulteti umumiy fanlar kafedrası

XXI asrning yuksak darajadagi informatsion-texnologiyalar asri ekanligi uning inson omiliga, jamiyatga, yoshlar ongiga ko'rsatayotgan ta'siri barchamizga aniq, shunday sharoitda ulg'ayib, voyaga yetayotgan yoshlarimiz ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, ularning ijtimoiy xulqini boshqarishning zamonaviy samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va ilmiy izlanishlarda sinovdan o'tkazish fan va amaliyot uchun o'ta dolzarb vazifalardandir.

Axborotlarning insonlarning taraqqiyotidagi o'rni, uning zarurligi to'g'risidagi fikrlar bizgacha yetib kelgan. Bunday yozma manbalarga VI-VII asrlarda yaratilgan Avesto, XI asrda yaratilgan Unsurmaoili Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Fozil shahar odamlari" asari, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" va boshqa ko'plab ilmiy-adabiy, tarixiy madaniy merosimiz namunalarini misol keltirishimiz mumkin. Bu asarlarda yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, axloqiy hislatlari, odobi, hayotlari, o'z turmush mazmunini belgilashda axborotlarning o'rni, ustoz-shogird, oila munosabatlari masalalari kengroq bayon qilinganligi e'tiborga molikdir.

Qator davlatlar tomonidan qo'llanilayotgan "psixologik urush" olib borish metodlari aslida qadimgi eramizdan oldingi VI asrda yashagan Xitoy faylasufi va harbiy arbobi Sun Szi qo'llanmalarida juda aniq ifodalab berilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Dushmaningizning mamlakatidagi hamma yaxshi narsalarini parokanda qiling.
2. Dushmanning ko'zga ko'ringan arboblarni jinoyatkorona ishlarga jalb qiling.
3. Dushman rahbarlarining obro'sini to'king va payti kelganda ularni jamoatchilik oldida izza qiling.
4. Shu maqsadda eng qabih va razil odamlar bilan hamkorlikdan foydalaning.
5. O'zingizga dushman mamlakat fuqarolari orasida nizo va to'qnashuvlar keltirib chiqaring.
6. Yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlang.
7. Hukumatning ishiga barcha vositalar bilan xalal bering.
8. Dushman qo'shinlarining normal ta'minlanishiga va ularda tartib saqlanishiga barcha usullar bilan to'sqinlik qiling.
9. Dushman qo'shinlari maylini ashula va musiqalar bilan band qilib qo'ying.
10. Dushmanlaringizning an'analarini qadrsizlantirish va o'z xudolariga ishonchini yo'qotish uchun mumkin bo'lgan hamma narsani qiling.
11. Ma'naviy buzilishni avj oldirish uchun yengiltabiat ayollarni yuborib turing.
12. Axborot va sheriklar sotib olish uchun taklif va sovg'alarga saxiy bo'ling.

13. Umuman pulni ham, va'dalarni ham ayamang, chunki ular ajoyib natijalar beradi [99;44-b].

Bundan XXX asr muqaddam yaratilgan Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da, musulmon olami allomalarining ta'limotlari, xususan "Yassaviya", "Kubroviya", "Naqshbandiya" ta'limotlarida shaxs kamoloti va tarbiyasi, odob-axloqi va turli yoshlardagi shaxslarning psixologik xususiyatlari to'g'risidagi fikrlari mujassamlashgan. Ayniqsa, bu jihatdan Ahmad Yassaviy ta'limotining ham o'ziga xos qat'iy odob-qoidalar bor, keng ma'nolarda aks etgan. XII asrdan keyin "Yassaviya" ta'limotidan keyin ham ta'limotlar paydo bo'lgan, lekin Ahmad Yassaviy shaxs kamoloti, uning rivojlanishi, kamol topishida individual-psixologik xususiyatlarning o'rnini muhimligini ta'kidlaydi: "Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina inson axloqida ko'zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi"- deya ta'kidlaydi [142]. Yassaviyning axloqiy-psixologik mazmunga ega ta'limoti bugunga qadar ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q, o'z davrida Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari Yassaviy va uning ta'limotiga alohida e'tibor qaratganlar. Kaykovus o'zining 44 bobdan iborat asarida shaxs tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi, inson ruhiyatida sodir bo'ladigan psixologik xususiyatlarning sabablarini izlaydi. Asarda yoshlarning xulq-atvoriga fe'liga, xarakter xususiyatlariga alohida e'tibor berib yoshlar yoshlik davrlaridanoq ilm olishlari zarurligini ta'kidlaydi. Kaykovus "Qobusnoma" asarida yoshlarning to'g'ri so'z bo'lishlariga doir bir qator fikrlarni aytadi: "Ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin durugguy (yolg'onchi) bo'lmag'il" [143].

Sharq allomalaridan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida yoshlardagi axloqiy tarbiyaning usullari, shaxslararo munosabatlar, yosh avlodni munosib tarbiyalash, ularning psixologik xususiyatlari va odob-axloqiga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi: "Inson kamolotga yolg'iz erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi..."[145]. Sharqning ulug' allomalaridan biri Yusuf Xos Xojib o'z asari "Qutadg'u bilig" (Saodatga yo'llovchi bilim)da so'zning mohiyati, shaxsning kamol topib rivojlanishida ilm va so'zning ahamiyati kattaligiga alohida e'tibor qaratadi. "Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z deydi."[146]. Yoshlarni munosib tarbiyalash zarurligi ular kelajakning davomchisi ekanligini anglab yetgan Sohibqiron Amir Temur mamlakatning osoyishtaligi, farovonligi, avvalo ularning tarbiyasida va diplomatik aloqalarda xalq va davlat o'rtasida aloqadorlik, mamlakat aholisi o'rtasida tarqaladigan turli axborot va xabarlarning davlat va fuqarolarning ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratadi. Uning shaxs, davlatni boshqarish shaxslararo munosabatlar, qo'l ostidagi fuqarolar va yoshlarning himoyasiga alohida e'tibor qaratganligi "Temur tuzuklari" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Unga ko'ra:... "do'stu-dushmani murosayu madora martabasida tutdim. Do'st-dushmandan kimki menga iltijo qilib kelsa, do'stlarga shunday muomala qildimki, do'stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi"[147].

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'z asarlarida komil insonni tarbiyalash g'oyalarini batafsil yoritadi. Ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi. Shoir shaxs kamoloti uning psixologik rivojlanishi to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol shaxsni ifodalovchi ijobiy timsollar yaratish orqali bayon qiladi, asarlarida ilmiy falsafiy psixologik fikrlarini to'liq tasvirlab beradi. Shoir o'z asarlari orqali ko'pgina sohalarda yoshlarimizni tarbiyalashga e'tibor qaratadi: "Odamiyning yaxshirog'i uldurkim, porso va pok bo'lg'ay va xaq so'zin ayturda bevaxmu bok bo'lg'ay. O'zi poku ko'zi pokni inson desa bo'lur..."[148]. Alisher Navoiy yoshlar so'z va axborotlardan unumli foydalanib, ilm orqali o'zlaridagi yaramas odat va axloqiy psixologik

xususiyatlarini tuzatish zarurligini ta'kidlaydi. Shoir asarlari yoshlar yaxshilik va yomonlikni anglashlarida, ezgulikka intilib, yomon psixologik xususiyatlar va yovuzliklardan asranishda asosiy dasturil amal hisoblanadi.

Qator yillar davomida psixologiyaning ijtimoiy-psixologik mohiyatini o'rgangan V.M.Karimovning yozishicha "Shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o'zgarishlar va ma'naviy jihatdan poklanish davrida o'ta muhim sohadir. Zero, har bir shaxsning jamiyatda ro'y berayotgan tub islohotlarga munosabati, ularni idrok qilish va anglash darajasi, o'z-o'ziga nisbatan munosabatining tabiati, hulqidagi ijtimoiy motivlar va yo'nalishlar katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, bolaning voyaga yetish jarayonida uning ijtimoiylashuvi, ya'ni ijtimoiy munosabatlar muhitiga kirib borishi, ijtimoiy ta'sirlarni ongiga singdirishi va u yoki bu turdagi hulq andozalarini mustahkamlash, mafkuraviy dunyoqarashining shakllanishi jarayonlarining psixologik tabiatini tekshirish barkamol shaxsni voyaga yetkazish dasturini yaratish uchun zarur. Lekin har bir shaxsda bu jarayon o'ziga xos tarzda ro'y berishi sababli, ijtimoiy psixologiyada uning ijtimoiy tiplari farqlanadi va har bir murabbiy yoki tarbiyachi ularni bilishi amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ham ijtimoiy psixologiya uchun tabiiy ahamiyatga ega. Chunki alohida shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarning ta'sirini inkor etish masalaga bir yoqlama yondashishga barobardir. Masalan, shaxs uchun u mansub bo'lgan millat, elat yoki xalqning ruhiyati, uning ongidagi asrlar davomida saqlanib kelayotgan an'analar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari kabi o'z muayyan ta'sir kuchiga ega. Millatning ruhi ilk bolalikdoyoq shaxs ongiga u o'zlashtirgan milliy til orqali oila muhitida shakllanadi"[65;10]. E.G'.G'oziyev shaxsning kasbi, mehnat, o'yin, o'qish faoliyati natijalari uning yoshiga, individual-psixologik xususiyatlariga, uning rahbar yoki xodim darajasidagi mavqeiga bog'liq ravishda namoyon bo'lishini ko'rsatib bergan.

Bugungi kunda axboriy xurujlar Internetda, ijtimoiy tarmoqlarda, messenjerlar orqali ham olib borilmoqda. Shunga ko'ra, yoshlar taqdiri va istiqboli xususida o'ylar ekanmiz, axborot psixologik xavfsizlik masalasi mohiyati, uning taraqqiyot, jamiyat va insoniyat hayotiga ta'sir o'tkazish omillarini chuqur o'rganishni taqazo etadi.

-Psixoterapiya metodlari yakka shaxsga qanday ta'sir ko'rsatsa axborot xurujlari yoshlar ongiga shunday ta'sir ko'rsatadi.

-Yoshlar o'z qarashlari, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. Yoshlar mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib o'ziga mos axborotni qabul qiladi, uni tahlil etadi, o'z shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi, o'zining nuqtai nazarini shakllantiradi.

-Ijtimoiy-psixologik va axborot tizimlarini boshqarish bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda boshqaruvning eng maqbul uslublarini topish, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlashda yoshlar yakdilligini, ularning g'oyaviy jihatdan birligini ta'minlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Paxritdinov SH. Ijtimoiy tahdidlarni anglash zarurati //Tafakkur.-1999-№4.-B.104.-106.
2. Eshbekov T. "Mafkura va axborot –psixologik xavfsizlik". O'quv qo'llanma. Toshkent. O'zMU. 2018. 44-b.

3. Zaripov O.M. Yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol... fan... nom... dissertasiya.- Toshkent. 2023.

4. Zaripov O.M. .Yosh avlodning yot g`oyalarga qarshi g`oyaviy immunitetini shakllantirishning psixologik masalalari. O`quv-uslubiy qo`llanma. Samarqand.- 2019.18.04. №10.110b.